KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

HERALD
www.herald.kokanduni.uz

NAVOIY TALQINIDAGI “OLAM MANZARALARI”: LINGVOKOGNITIV TAHLIL

Umarova Nargizaxon Rustamovna,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori.
DOI: https://doi.org/10.54613/yt1nk167

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 6-noyabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 9-noyabr 2026-yil
Jurnal soni: 20-A
Maqola raqami: 1

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, “olam” konsepti, kognitiv kontekst, mumtoz matn, o‘zbek tilshunosligi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada Alisher Navoiy asarlarida “olam” leksemasi va u ishtirokidagi birikmalar orqali ifodalangan olam manzaralari tahlil qilinadi. Tilshunoslikda “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasiga berilgan talqinlar umumlashtirilib, Navoiy talqinida olam manzarasi to‘rt unsur, to‘rt tabiat (mijoz) va olti jihat tushunchalari asosida tasavvur qilinishi ko‘rsatiladi. “Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at” ma’lumotlari asosida shoir asarlaridagi 35 ta “olam” komponentli birikmalar va ularning ma’nolari tizimlashtirilib, mavzuiy guruhlarga ajratilgan, ularning grammatik qurilishi tavsiflanadi hamda “olam” so‘zi negizida yasalgan so‘zlar ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijalari Navoiy tafakkurida olam manzarasi moddiy va ma’naviy, foniy va boqiy olamlar qarama-qarshiligiga hamda katta olam (makrokosm) va inson (mikrokosm) mutanosibligiga asoslangan ko‘p qatlamli tizim sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual-semantik va konseptual tahlil usullari qo‘llanilgan. Birikmalarning mavzuiy tasnifi va grammatik tuzilishi o‘zaro bog‘liqlikda yoritilgan. Olingan natijalar mumtoz matnlardagi “olam” konseptining nominativ maydonini o‘rganishga asos bo‘ladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 6 November 2026
Approved: 9 November 2026
Volume: 20-A
Paper number: 1

KEYWORDS

linguistic worldview, conceptual worldview, the concept of “olam”, cognitive context, classical text, Uzbek linguistics

ANNOTATION

The article examines the worldviews expressed through the lexeme “olam” (world) and phrases containing it in Alisher Navoi’s works. It summarizes linguistic interpretations of the concept of the linguistic worldview and shows that Navoi’s representation of the world draws on the four elements, four temperaments, and six spatial directions. Based on the Alisher Navoi Encyclopedic Dictionary, 35 phrases containing “olam” and their meanings are systematized and classified into thematic groups; their grammatical structures and words derived from “olam” are also examined. The findings reveal a multilayered worldview grounded in the opposition between material and spiritual, transient and eternal worlds, and in the correspondence between the macrocosm and the human microcosm. The study employs descriptive, contextual-semantic, and conceptual analysis. The thematic classification of the phrases is considered in relation to their grammatical structure. The findings provide a basis for studying the nominative field of the concept of “olam” in classical texts.

Kirish

Tilshunoslar tomonidan ikki xil e’tirof etib kelinayotgan “dunyoning lisoniy manzarasi” (DLM) yoki “olamning lisoniy manzarasi” (OLM) tushunchasining nazariy muammolari dunyo tilshunosligida XIX asrning so‘nggi choragidan beri muhokama qilib kelinmoqda. “Olamning lisoniy manzarasi” istilohi dastlab V.fon Gumboldt, etnolingvist Edvard Sepir asarlarida uchraydi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi, konsept va konseptosferalar xususida olib borilgan tadqiqotlar orasida N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Nurmonov, A.Abduazizov, A.Mamatov, A.Sobirov, J.Eltazarov, D.Xudayberganova, M.Ergasheva, T.Sh.Maxmaraimova singari olimlarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi.

Biroq mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida olam manzarasining aks etishi, shoir talqinidagi “olam” tushunchasining tarkibi va uni ifodalovchi lisoniy vositalar hali yetarlicha maxsus o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi Alisher Navoiy asarlarida “olam” leksemasi va u ishtirokidagi birliklar orqali ifodalangan olam manzaralarini aniqlash, ularning ma’nolarini tizimlashtirish hamda shoir talqinidagi olam manzarasining tayanch tushunchalarini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

J.Eltazarovning qayd etishicha, har bir konkret tabiiy-ijtimoiy va lisoniy vaziyatda inson dunyoni o‘z sezgi organlari orqali qabul qilishi va anglashi uning olam haqidagi tasavvurlar tizimini shakllantiradi, dunyodagi moddiy va nomoddiy narsalar inson ongiga abstraksiyalash usullari yordamida cheklangan motivatsion belgilar tizimi sifatida eksplikatsiya qilinadi [1, 101–104-bet].

Til obyektiv borliqni idrok etishning birlamchi bosqichida nusxa ko‘chirish emas, balki dunyoni hissiy bilishga, eslashga, ichki tahlil va tasavvurni yaxshilashga qaratilgan reaksiyaga asoslanishi, ikkilamchi bosqichda esa bu modelning olam va insonning xatti-harakatlari til birliklari (so‘z) bilan ifodalanishi qayd etiladi. Birinchi bosqichni olamning konseptual manzarasi, ikkinchisini esa olamning lisoniy manzarasi deyish mumkin. Til olamni maxsus belgilar tizimi orqali ifodalagani uchun olamning lisoniy manzarasi ko‘lami olamning konseptual manzarasiga ko‘ra ancha tordir.

Zamonaviy tilshunoslikda “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi “borliq haqidagi ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami” deb ta’riflanadi [2, 3-bet; 3, 18–27-bet], “olamning lisoniy manzarasi obyektiv olamning subyektiv ko‘rinishi, olamning konseptual manzarasini tilda ifodalash usuli sifatida talqin etiladi” [4, 104–107-bet].

M.Xaydeggerning ta’kidlashicha, “olam manzarasi” deganda olam tasvirlangan manzarani emas, balki

olamning o‘zini manzara sifatida tushunish kerak. Olamning falsafiy, diniy, badiiy, mifologik, ilmiy, poetik, kognitiv, konseptual, lisoniy, maxsus va shu kabi manzaralarda namoyon bo‘lishi fanda e’tirof etilgan va ularning inson ongida aks etishida tilning ahamiyatli o‘rni borligi ta’kidlangan [5, 80–86-bet].

Z.D.Popova va T.A.Sternin bu manzarani madaniyat orqali kishi ongida shakllangan stereotip va konseptosferalar majmui sifatida e’tirof etadilar. Olamning bilvosita manzarasi esa kishi ongidagi olamning bevosita (kognitiv) manzarasini moddiylashtiruvchi, ya’ni ikkilamchi belgilar tizimi orqali konseptosferaning aks etishidan iborat. Olamning lisoniy va badiiy manzarasi shu manzara tarkibiga kiradi [5, 82-bet].

Sh.Sirojiddinov e’tiroficha, olamning lisoniy manzarasi – olamning konseptual manzarasi orqali borliqning in’ikos etilishidir [5, 83-bet].

Z.M.Baynazarov Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asariga asoslanib olamning lisoniy manzarasini 20 dan ortiq komponentlar [6, 14-bet]ga ajratadi: siyosat va davlat boshqaruvi; turkiy olam va dunyodagi etnik ahvol; turkiy xalqlarning hayot tarzi; oila; qavm-qarindoshlik; xalq; ijtimoiy tabaqalar; jamiyatdagi kundalik hayot; diniy e’tiqodlar va odatlar; ta’lim va ilm-fan; tibbiyot; o‘yin va musobaqalar, ko‘ngilxushlik; adabiyot, musiqa va cholg‘u asboblari; kiyim-kechak; uy-joy; oziq-ovqatlar va yeguliklar; taqvim; ot va boshqa naqliyot vositalari; iqtisod, moliya; xo‘jalik va h.k. Bu mavzuiy guruhlar XI asr turkiy xalqlar hayotining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Biz tabiatni lisonimiz ko‘rsatgan yo‘nalishda qismlarga ajratamiz. Olamdagi hodisalar, kategoriyalar, turlarni ularning aniq mavjudligiga nisbatan ajratmaymiz, aksincha, olam bizning ongimizda misli charxpalakdek aylanib turgan taassurotlar asosida tartib topadi. Demak, bu tartibni ongimizda saqlanayotgan til tizimi ta’minlaydi. Biz olamni u yoki bu yo‘sinda (boshqacha emas) qismlarga ajratishimiz, tushunchalar vositasida ifodalashimiz va ma’nolarga taqsimlashimizning sababi biz ham bunday tizimlashtirishga undovchi kelishuv ishtirokchilarimiz. Bu kelishuv ma’lum bir lisoniy jamoa uchun majburiy va bizning lisonimiz tizimidan joy olgan... Shunday qilib, nisbiylik tamoyilining yangi ko‘rinishiga duch kelamiz va uning mazmuni quyidagicha: bir xil fizik hodisalardan tarkib topgan olamning bir xildagi tasviriga faqatgina til tizimlarining bir xil yoki hech bo‘lmaganda o‘xshashligidagina erishish mumkin [7; 8, 67-bet].

Italyan olimi Umberto Eko borliq idroki va uning kognitiv “hazmi” subyektiv nazorat ostida kechishini alohida ta’kidlaydi. “Bizni qiziqtiradigan barcha hodisalarni, – deb yozadi olim, – kommunikatsiyaning eng oddiy holatiga asoslanib, juda oddiy model ko‘rinishiga keltiramiz. Keyin esa paydo bo‘lgan tushunchalarga baho beriladi, ular kengaytiriladi – boshqacha tasavvur qilinadi, inkor etiladi, ular oldindan qo‘yilgan qopqonlarga qamaladilar, ularning “pishiqligi”, mustahkamligi tekshirib ko‘riladi” [9, 30-bet]. Har qanday individual konsept ham shu yo‘sindagi “ishlov”dan o‘tgandan so‘nggina alohida shaxsning ichki leksikonidan o‘rin oladi, uning ideolekti namunasiga aylanadi [10, 267–268-bet].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot materiali sifatida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Saddi Iskandariy” dostonlaridan olingan misollar hamda “Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at”da qayd etilgan “olam” leksemasi ishtirokidagi 35 ta birikma va ularning izohlari olindi. Qiyosiy material sifatida Jaloliddin Rumiy asarlari va “G‘iyos-ul-lug‘at” ma’lumotlariga ham murojaat qilindi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual-semantik va konseptual tahlil hamda tasniflash usullaridan foydalanildi: avval birikmalarning lug‘aviy ma’nolari aniqlandi, so‘ng ular badiiy kontekstdagi qo‘llanishi bilan qiyoslanib, mavzuiy va grammatik guruhlarga ajratildi. Maqolada misollar manbasi quyidagi shartli qisqartmalar bilan berildi: HA – “Hayrat ul-abror”, SI – “Saddi Iskandariy”.

Natijalar

Borliq olam ifodasida to‘rtlik juda muhim miqdor. Bizni qurshab turgan olamni shu son bilan, shu miqdor va shu turdagi bosqichda tavsif etish mumkin. Aslida bu ko‘hna olam to‘rt unsur birligidan (havo, suv, tuproq va olovdan) tashkil topgan. Bu to‘rt unsurlik bevosita yer yuzi va undagi insonlarning tabiatida ham qaror topadi: issig‘u sovug‘u ho‘lu quruq tarzida. Bu xossalar tabiatda havo, suv, olov va tuproq ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Odam mana shu to‘rt unsurning mahsuli bo‘lib, bu har bir xalq tafakkurida birday e’tirof etiladi. Tabiblar quruqni issiq bilan; sovuqni ho‘l bilan; quruqni esa ho‘l, va nihoyat, quruqni sovuq bilan birlashtirib inson tabiatidagi to‘rt mijozni ta’riflaydilar. Bu haqda Navoiy deydiki: Borin to‘rt tab’ ettilar e’tibor: Isiq, sovuq, o‘lu quruq fahm qil (SI).

Odam mijozidagi bu unsurlar yer tabiatiga ham xos bo‘lib, tabiat ham to‘rt fasl qamrovida to‘la namoyon bo‘ladi. “Saddi Iskandariy”da qayd etilishicha, Ani o‘tu suv, yelu tufroq bil, Ki, inson bulardin murakkabdurur (SI).

Inson tabiati ham shu to‘rt unsur bilan belgilanadi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida to‘rt unsurning xossalarini, birining ikkinchisiga aylanishidagi mo‘jizani bayon etar ekan, bu qarashlarning hazrati Rumiyda shunday talqinlarini uchratamiz: “... Sen xok eding, ko‘katga aylanding. Nabotot dunyosidan bir qatra qon bo‘lib, hayvonot dunyosiga o‘tding, nihoyat, hayvonot dunyosidin – olami insoniyatga. Mana bu – asl mo‘jiza” [11, 328–329-bet].

Ba’zida “olam” deganda, barcha narsalar, jismlar, voqea-hodisalarni qamrab oluvchi umumiy tizim tushuniladi. Faqat moddiy jismlarni o‘zida qamrab oluvchi olam moddiy olam deyiladi. Insonning ma’naviy-ruhiy dunyosini qamrab oluvchi borliq – ma’naviy olam deb yuritiladi. Olamning sanog‘i falakiyotga oid manbalarda turli miqdorda ko‘rsatilgan. Ibn Sino diniy kitoblarda “Olamning miqdori va sanog‘i 70 000 dan 300 000 tagacha” keltirilganini aytib o‘tadi. Mir Said Ali Hamadoniy “Xilofot ul-manoqib”da olamning sanog‘ini 60 000 deb ko‘rsatgan.

“Basoir” sohibi aytibdurki, – deydi “G‘iyos-ul-lug‘at” muallifi, – jahonning sharqu g‘arb, shimolu janubdagi har rub’ida 4500 olam bo‘lib, jami 18 000 dur” [12, 429-bet]. Bundan tashqari, ikki olam – foniy dunyo va oxirat dunyosi tushunchasi ham keng qo‘llaniladi.

“Olam” insonni o‘rab turgan borliq haqidagi keng ma’noli tushuncha bo‘lib, ma’lum ma’noda, voqelikning ifodasi sifatida uning barcha sifat va jihatlari “Qomusiy lug‘at” [12, 429–430-bet]da batafsil tavsiflangan. Navoiy asarlarida quyidagi ifodalar 35 ta olamni tavsiflaydi, “olamlar manzarasi” shoir asarlarida ana shu tarzda namoyon bo‘ladi va buni quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin.

1-jadval.

Navoiy asarlarida “olam manzarasi”ning kognitiv konteksti

№	Olamlar nomi	Olamlar ifodalagan tushunchalar
1	Olam ahli	Odamlar
2	Olami arvoh	ruhlar dunyosi, kasofat olami – majoziy ma’noda bu dunyo
3	Olami savdo	junun va behudlik dunyosi, ishq olami
4	Olami g‘addor	aldamchi, xiyonatkor olam
5	O‘tar olam	foniy, bebaqo dunyo
6	Olami kubro	katta olam (makrokosm), majoziy ma’noda ko‘ngil

№	Olamlar nomi	Olamlar ifodalagan tushunchalar
7	Olami dun	nokas dunyo
8	Olami qudsiy	muqaddas ruhlar dunyosi
9	Ma'no olami	ma'naviyat dunyosi
10	Fardliq olami	tanholik, yolg'izlik dunyosi
11	Olami foniy	moddiyat olami
12	Olami boqiy	oxirat dunyosi
13	Olam asbobi	moddiy dunyo
14	Olami purshar	yomonlikka to'la dunyo
15	Olami olam	juda ko'p
16	Ujbu nafsoniyat olami	takabburlik va manmanlik olami
17	Basiti olam	yer yuzi
18	Olam inqirozi	Qiyomat
19	Muhli olam	halokat keltiruvchi olam
20	Xulosai olam	Muhammad payg'ambar (s.a.v.)
21	Xoliqi olam	Alloh taolo
22	Rahmatan lil-olamin	barcha olamlarga rahmat qilib yuborilgan Muhammad payg'ambar (s.a.v.)
23	Zulmat olami	Xizr chashmasi yashiringan afsonaviy mintaqa
24	Sayidi olam	Muhammad payg'ambar (s.a.v.)
25	Nodirai olam	dunyodagi benazir kishi (Jomiyning sifati)
26	Olami asror	sirlar olami
27	Olam daqoyiqi	dunyoning sirlari
28	Olam hayulosi	birlamchi materiya
29	Xojayi olam	Muhammad payg'ambar (s.a.v.)
30	Rabboniy olam	Alloh taolo zotiga oid olam
31	Olam hakimi	dunyoda yagona donishmand
32	Fardi olam	olamda yagona hakim
33	Fitnayi olam	go'zal ma'shuqaning sifati
34	Olami ishq	ishq olami
35	Qutbi olam	valiy va h.k.

Jadvaldagi 35 ta birikmani ma'nosiga ko'ra oltita mavzuiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni diniy-metafizik olamlar tashkil etadi: olami arvoh, olami qudsiy, olami boqiy, olami asror, Rabboniy olam, olam inqirozi (6 ta). Ikkinchi guruhga moddiy-kosmologik va falsafiy tushunchalar kiradi: o'tar olam, olami foniy, olam asbobi, basiti olam, olami kubro, olam hayulosi, olam daqoyiqi, zulmat olami (8 ta). Uchinchi guruhni insonning ruhiy-ma'naviy holatlari bilan bog'liq olamlar hosil qiladi: olami savdo, ma'no olami, fardliq olami, olami ishq (4 ta). To'rtinchi guruhda dunyoga axloqiy baho beruvchi birikmalar jamlangan: olami g'addor, olami dun, olami purshar, ujbu nafsoniyat olami, muhli olam (5 ta). Beshinchi, eng katta guruhni shaxsni nomlovchi yoki sifatlovchi birikmalar tashkil etadi: olam ahli, xulosai olam, Xoliqi olam, rahmatan lil-olamin, Sayidi olam, nodirai olam, Xojayi olam, olam hakimi, fardi olam, fitnayi olam, Qutbi olam (11 ta). Oltinchi guruhda olami olam birikmasi miqdor ("juda ko'p") ma'nosini ifodalaydi (1 ta).

Birikmalarning grammatik qurilishida ham muayyan qonuniyat kuzatiladi. Ularning 22 tasi forscha izofa asosida tuzilgan: 12 tasi "olami + aniqlanmish" (olami arvoh, olami qudsiy, olami ishq kabi), 10 tasi "aniqlanmish + -i olam" (xulosai olam, Sayidi olam, fitnayi olam kabi) qolipida. 10 ta birikma turkiy qaratqich-qaralmish munosabati asosida yasalgan: "olam + qaralmish" (olam ahli, olam asbobi, olam hakimi kabi – 6 ta) va "qaratqich + olami" (ma'no olami, fardliq olami, zulmat olami kabi – 4 ta). Qolgan 3 tasi boshqa qoliplarda: o'tar olam (sifatdosh + ot), Rabboniy olam (sifat + ot) va rahmatan lil-olamin (arabcha birikma). Forscha izofaning ustunligi "olam" bilan bog'liq tushunchalar mumtoz adabiyotning arab-fors badiiy an'anasi doirasida shakllanganini ko'rsatadi.

Olam so'zi negizida yasalgan olamoro – olamni yorituvchi, olamso'z – dunyoga o't qo'yuvchi; olamafro'z/olamfruz – olamni munavvar etuvchi; olamgard – dunyokezar, tezyurar; olamgir – dunyo fotihi, jahongir; olampanoh – hukmi barcha olamdagilarga o'tuvchi zot (podshoh); olamtob – dunyoni yorituvchi kabi so'zlar ham Navoiy asarlarida juda ko'p qo'llangan.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida olam manzarasi mukammalligini olti jihatga bog'laydi:

Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,
To'rt guhar tarki anga toj o'lub (HA, 11-bob)

Olam manzarasini anglashda uning olti jihatini nazarda tutmoq lozim. Bu olti jihat lug'atlarda shunday izohlanadi [12, 430-bet]: bu dunyoning olti tomoni: sharq, g'arb, shimol, janub, yer osti, osmon. O'ng, so'l, old, orqa, yuqori, quyi shaklida ham talqin qilinadi. Olti taraf – jihoti sitta shaklida ham qo'llaniladi. Olti jihat borliq falsafasining muhim tushunchalaridan bo'lib, fazo, vaqt va harakat kategoriyalari munosabatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Navoiy asarlarida olti jihat (yo olti taraf) asosan me'roj kechasi tasviriga bag'ishlangan she'rlarda qo'llanilib, bu orqali ilohiy mo'jizalarni falsafiy tushunchalar va aqliy dalillar bilan izohlash imkonsizligi ta'kidlangan.

Muhokama

"Qomusiy lug'at"da olamlar to'kis ifoda topgan, deb aytolmaymiz, chunki Farididdin Attor devonidagi qasidada "olami sug'ro" (kichik olam) [13, 113-bet] atamasi ham uchraydi. Aytiladiki, "ko'ksini kursi holiga keltirib, ko'nglini arsh aylagan kishi qayondakim, men unga olami sug'ro (kichik olam) alomatlarini oshkor etsam. ... Marvaridning qadrini bilguvchi, ilm dengizining zargari qaydakim, unga yetti marvarid-u to'rt gavhar sirin ochsam".

Konsept turg'un hodisa emas, uning hududi doimo kengayib, insonning voqelikni idrok etishdagi ehtiyoji va imkoniyatlari o'sib borgani sari zahirasi ham oshib boradi, mundarijasi murakkablashadi [10, 268-bet]. Demak, yuqorida ko'rilgan "olam manzarasi"ning mundarijasi ham ana shu tarzda kengayib borgan.

Tahlil qilingan materiallar Navoiy talqinidagi olam manzarasining ikki asosiy o'qqa tayanishini ko'rsatadi. Birinchisi – vertikal o'q bo'lib, u foniy va boqiy, moddiy va ruhiy, nafsoniy va qudsiy olamlar qarama-qarshiligida namoyon bo'ladi. To'rtinchi guruhdagi salbiy baholi birikmalarning barchasi bu dunyoga, birinchi guruhdagi ijobiy mazmunli birikmalar esa ilohiy va abadiy olamga taalluqli ekani ana shu qarama-qarshilikning lisoniy ifodasidir. Ikkinchisi – makon o'qi bo'lib, u olti jihat

tushunchasi orqali olamning fazoviy tuzilishini belgilaydi. Shu bilan birga, to‘rt unsur ta’limoti inson va olamni bir xil asosdan tarkib topgan deb bilgani uchun olam manzarasi inson tabiati bilan mutanosib tasavvur qilinadi: olami kubro birikmasining majoziy ma’noda ko‘ngilni anglatishi va olami sug‘ro (kichik olam) tushunchasi bu mutanosiblikning lisoniy dalilidir. Shaxsni nomlovchi birikmalarning ko‘pligi esa “olam” so‘zi Navoiy tilida ulug‘lik va beqiyoslikni o‘lchovchi mezon vazifasini ham bajarishini ko‘rsatadi.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarida olam manzarasi to‘rt unsur, to‘rt tabiat va olti jihat tushunchalariga tayanadigan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. “Qomusiy lug‘at” ma’lumotlariga ko‘ra, shoir asarlarida “olam manzarasini ifodalovchi” 35 ta birikma qayd etilgan bo‘lib, ular diniy-metafizik, moddiy-kosmologik, ruhiy-ma’naviy, axloqiy-baholovchi, shaxsni nomlovchi va miqdor ifodalovchi guruhlarga bo‘linadi; ularning aksariyati forscha izofa qolipida tuzilgan. Olami sug‘ro kabi lug‘atda qayd etilmagan birikmalar va “olam” negizida yasalgan olamoro, olamafro‘z, olampanoh singari so‘zlar mumtoz matnlardagi olam manzarasi lug‘atda berilganidan kengroq ekanini ko‘rsatadi. Navoiy olam manzarasini mumtoz adabiyotning boshqa namoyandalari asarlari bilan qiyosiy o‘rganish va “olam” konseptining to‘liq nominativ maydonini aniqlash galdagi tadqiqotlarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eltazarov J.D. So‘z turkumi paradigmasidagi o‘zaro aloqa va ko‘chish hollari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – № 3.
3. Mahmudov N. Tilning so‘z xazinasi va olamning lisoniy manzarasi // So‘z san’ati. – 2018. – № 1.
4. Musayeva F. Olamning dialektal lisoniy manzarasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 4.
5. Sirojiddinov Sh. Olam manzarasi tushunchasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 2.
6. Baynazarov Z.M. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2020.
7. Уорф Б.Л. Наука и языкознание // Новое в лингвистике. Вып. 1. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
9. Эко У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию. – СПб.: ТОО ТК “Петрополис”, 1998.
10. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
11. Fish R. Jaloliddin Rumiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
12. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at / S.Sirojiddinov mas’ul muharrirligida. – 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2016.
13. Jaloliddin Rumiy. Yetti majlis. Majolisi sab’a. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.